

SO`Z SEHRI.

Xamroqulova Feruza

Hamid Olimjon va Zulfiya nomli ijod maktabi o`qituvchisi

Annotatsiya: Erkin Vohidovning she`rlaridagi nafislik, tovlanishlar va o`zgarishlar haqida, xalqimizdagi ko`pgina irimlarning kelib chiqish sabablari, tabiatni asrash borasidagi foydali tomonlari haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: Alisher Navoiy, “Yoshlik devoni” “Tirik sayyoralar”, “Kuy avjida uzilmasin tor”, “So`z latofati”, Bedil, muhr, taqdir, chaqimchilik, irim.

Hazrat Navoiyda shunday go`zal jumlar bor.

Insonni so`z ayladi judo hayvondin ,

Bilginki guhari sharifroq yo`q ondin.

So`z insonni oliy mavjudot ekanligini bildirib turadigan yaratma ekanligini Hazrat chiroyli o`xshatish bilan aytib ketganlar.

Men asli tilshunos emasman. Tilshunoslarday bu sohani zer-zabarini tushunmasman. Ammo mening bitta haqiqatim bor. Bu ham bo`lsa men she`riyatni sevaman.

O`smirlik davri qiziq bo`ladi. Na bola emassan, na katta odam. Kichkinalar bilan o`ynasang –uyat, kattalning gapiga aralashish jinoyat. O`smir yoshidagi o`g`il-qizlar ikki oradagi muallaq muhitda osilib turgan yoshlar. Shunday kunlarning birida qo`limga allaqanday kitobning bir parchaginasini tushib qoldi. Asli uyimiz kitobga to`la. Kitoblar ichida ulg`ayganman. Lekin bu parcha bizning uydagi kitoblardan emasdi. Undagi omon qolgan misralar xayolimni tortdi.

“Derazamdan tushgan tola nur

Somon yo`li kabi tovlanur” .

Bu misralarga oshiq bo`ldim. Yursam, tursam tilimda, lekin qaysi shoir ijodi bilmayman ham, qishloqi soddalik qiziqmabman ham. Bir kuni vodiylilik shirin

tilli adabiyot ustozimiz tilimdan bu misralarni eshitib qolibdi shekilli, meni chaqirib so`radi “-sen Erkin Vohidovga qiziqasanmi?”. Nima deyishni bilmay qoldim. Ha desam, bironta she`rini yoddan bilmas ekanman (darsligimizda berilgan “Nido” dostoni bundan mustasno albatta, chunki bu dostonni sinfimiz bilan qariyb barchamiz yoddan bilardik). Meni esankirab turganimni sezdilar shekilli o`qituvchimiz shoir she`rlarini nomlarnini ba`zi misralari bilan ayta boshladi. Uyatdan yerga kirib ketay dedim. Sababi biz qizlarning o`sha paytlar urf bo`lgan “Yoshlik” daftarlarimizda biridan ikkinchisiga ko`chib yuradigan she`rlarning qariyb barchasi shoir qalamiga mansub ekan. Shunda ustozim o`qib chiqish uchun o`zining muqovasi eskirib, varaqlari anchagina titilib ketgan “Yoshlik devoni”ni qo`limga tutqazdi va aytdiki, bu kitob yoshi mendan ikki baravar katta ekan. Shu bahona bo`ldi-yu, men shoir she`rlari muhlisiga aylandim. Keyinchalik o`zim ham o`sha paytda nashrdan chiqqan “Kuy avjida uzilmasin tor” degan kitobini sotib oldim. Bu kitob menga uzoq yillar hamroh bo`ldi. Meni oshiq qilgan misra esa shoirning “Tirik sayyoralar ” nomli she`ri ekan.

Derazamdan tushgan tola nur
Somon yo`li kabi tovlanur.
Hayratki, shu tola nur aro
Ming-ming zarra kezar ovvora.
Har bir zarra balki bir dunyo,
Ehtimol bir o`zga sayyora...

Yaqin yillarda qo`limga ustoz ErkinVohidovning “So`z latofati” nomli asari tushib qoldi. Aniqrog`i bu kitobni ustoz tiriklar olamini tark qilgandan so`ng o`qidim. O`qidimu g`alati hislar qurshovida qoldim.

Buyuk shoirning haqiqatdan ham xalq tilini naqadar tushuna olishi , naqadar go`zal topilmalar topa olishiga yana bir bor qoyil qoldim. “So`z latofati”ni o`qir ekanman, bolaligim yodga tushdi. Bu deyarli barchani hayotida kuzatilgan haqiqat. Odatda bolalar urushib qolsa, tez arazlaydi. Tabiiyki darhol ikki o`rtada ikkila tomonni bir-biriga tezlaydigan, yani chaqimchilar paydo bo`ladi. Bolalik arazi juda tez barham topadi. Ikki orada gap chaqqan bola esa ajrab qoladi. Bolalikning

osmoni toza, dili beg`ubor. Gap chaqishtirgan bolaga “chaqmachaqaq” deb nom qo`yib olishadi. Kitobda bu gapga urg`u berib aytib o`tilganini ko`rgach, beixtiyor labimga kulgu indi. Shunday jumlaning o`qiymiz, “odamlarda tafakkur kuchi ortgan sari tasavvur kuchi kamayib bormoqda”. Bu gap ayni haqiqat. Kitob orqali ustoz qo`limizga bir oyna tutqazgandek bo`ladi. Go`yoki “Qara, sen ishlatayotgan so`zlarning ildizi qayerlarga borib qadalyapti, sen suv ichgan buloqning asl manbasi qayer?” degandek. Xalqimizda “Suv yetti dumalasa halol” degan ibora bor va bu ibora orqali oqar suvlarga halol deya ta`rif beramiz. Fanga murojaat qilsak, suvga ta`rif berilganda, suv oqish jarayonida o`z-o`zini tozalab tindirguchi deya aytib o`tiladi (albatta bu qatorga biz shahar ko`chalaridan ichida turli-tuman chiqindilarni to`ldirib oqib o`tayotgan anhorlarni kirita olmaymiz. Zero, ularning o`zi poklanish uchun toza suvga muhtoj). Yana turli irim-sirimlar haida ham shu gapni aytib o`tish lozim. Dinimizda irimga bid`at deb qaraladi. Lekin men bir narsaga hayron qolaman. Xalqimiz judayam dono xalq, lekin nega endi shunday bid`atlarga ishondi ekan. “Odamlarda tafakkur kuchi ortgan sari tasavvur kuchi kamayib bormoqda”. Keling tasavvurimizni ishlatamiz. Irimlarni odatda “ yomon bo`ladi” so`zi orqali ifodalaymiz. “ Kechqurun uy supurma –yomon bo`ladi, suvga axlat tashlama-yomon bo`ladi, uyda tirnoq olma yomon bo`ladi, supurgini tikka qo`yma- yomon bo`ladi, chaqlogi bor kelin begonalar bilan ko`rishsa yomon bo`ladi”... bu r o`yxatni uzoq davom ettirishimiz mumkin. Nega endi yomon bo`ladi? Nima uchun? Qanday? Endi “So`z latofati” qo`limizga tutqazgan oyna orqali bir boqib ko`raylikchi. Kechqurun uy supurilsa, tabiiyki uy chala supuriladi, chunki bu irimlar dunyoga kelganda hozirgiday yorug`lik manbalari bo`lmagan. Dono onajonlar esa qizlarini aynan shu “yomon bo`ladi” iborasi orqali tarbiya qilganlar. Suvga axlat tashlash esa nainki yomon, xatto-ki jinoyat bo`lgan. Uyda tirnoq olganda esa, tasodif bilan yemakka tushib qolish xavfi mavjud. Supurgini tik turishi esa haqiqatdan ham ko`zga xunuk turadi. Yangi bo`shangan yosh ona organizmi esa immun tizimi faoliyati susayib, har xil kasaliklarga tez chalinuvchan bo`lib qoladi. Shunday ekan bu borada o`zini avaylashni nimasi bid`at-u, nimasi ortiqcha ekan. Biz aksincha, har bir narsani aslini ko`ra olishga harkat qilmog`imiz kerak emasmi?

“So`z latofati”da aytilganiday, “ko`zimizni ochib, oyoq ostimizga qarashimiz” lozimdir.

“To`ylar qiling, qamishdan bel bog`lab xizmat qilay” iborasiga ta`rif berib, aslida qamishday emasmi deyidilar. Haqiqatda ham qamishning bo`g`inlari qadimdafi otalarimiz bog`lagan qo`sha-qo`sha belbog`lari kabi turadi.

Meni hayratga slogan yana bir topilmani esa sizga aynan keltirib o`taman.

“Peshonadagi ajinlar xatga o`xshaydi. Ijodkor xalq bu yozuvlarni qismat yozuvi deb tasavvur qilgan va taqdirga tan berganda, peshonada borini ko`ramiz , degan. Yana deydilarki, insonning peshonasiga teskari xat bitilgan, baxtu omad undan yuzini ters o`giran. Mirzo Bedil bu rivoyatdan go`zal tashbeh chiqargan:

Naqshi ma`kusi nigin az sajda megardad durust,

Carnavishti vojgunro rost mesozad namoz.

Ya`ni nisinga – muhr o`yilgan uzukka ters xat naqsh etilgan. Barmoq bukib qog`ozga bosilsa, muhrning teskari xati o`ng bo`ladi. Ey, inson, sening ham peshonangga taqdir xati chappa yozilgan. Uni o`ng xatga aylantirish uchun peshonangni sajdaga qo`y. Sening xaloskoring namozdir.- Ajob qiyos, bedilona chuqur falsafiy bayt”. Men ham ayni jummalarni ta`kidlamoqchiman. “Ajoyib qyos, Erkin Vohidovga xos o`xshatish, Erkin Vohidovga xos topilma”.

Bu topilmalar esa izlanuvchan muhlis uchun har qadamda topiladi.

Shunday ekan ketdik...

Derazamdan tushgan tola nur

Somon yo`li kabi tovlanur...

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Erkin Vohidov “Tanlangan asarlar” “Sharq” nashriyoti
2. Erkin Vohidov “So`z latofati” Toshkent 2014 “O`zbekiston ” nashriyoti